

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
PROPEDEVTIK STOMATOLOGIYA KAFEDRASI**



**PREKLINIK RESTAVRASION STOMATOLOGIYA
FANI BO‘YICHA**

Bilim sohasi: 900 000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi: 910 000 – Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi: 60910100 – Stomatologiya

Andijon – 2025

Fan/modul kodi PRS 11208	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-2	Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 3-4	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Prelinik restavratsion stomatologiya	120	120	240
2	<p>1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni</p> <p>1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni</p> <p>Prelinik restavratsion stomatologiya moduli o'quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo'lib, 1 kursda o'qitiladi va mutaxassislik modullarining ilk bosqichi hisoblanadi.Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadbqiq etib, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib va orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.</p> <p>Dasturtalabani stomatologiyaga olib kirish bilan birga, stomatologiyada ishlatiladigan asboblari, uskunalari, ularning tasnifi, ishlatilishi, texnika xavfsizligi qoidalari, stomatologik plomba ashyolari, ularning turlari, saqlash va ishlatilish texnikasi kabi asosiy bilimlarni berish bilan bo'lajak stomatolog - talabalarda stomatologiyaning keyingi bo'limlarini to'laqonli o'rganishlari va tushunishlari uchun zamin yaratib beradi.“Prelinik restavratsion stomatologiya”moduli klinik modul hisoblanib, 1-kursningI-II semestrda o'qitiladi.</p> <p>Modulni o'qitish uchun organik va anorganik kimyo, biofizika, anatomiya, gistologiya fanlari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.Prelinik restavratsion stomatologiyamoduli keyinchalik klinik modullar jumladan, klinik restavratsion stomatologiya, klinik endodontiya, parodontologiya, ortopedik stomatologiya propedevtikasi, stomatologik kasalliklar profilaktikasi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.</p> <p>Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:</p> <p>1 semestr yakunida</p> <p>Talaba:</p> <p>– o'quv, ilmiy va ma'lumot adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, amaliy</p>			

ko'nikmalarni mustaqil bajarish, test va vaziyatli masalalarni yechish;

- stomatologiyada ergonomika talablari;
- stomatologiyada qo'llaniladigan asbob va plomba ashyolari;
- stomatologik bormashina va stomatologik qurilma;
- tish qattiq to'qima kasalliklarini kelib chiqish nazariyalari;
- tish qattiq to'qimalarini charxlash asoslari va xavfsizlik qoidalari-haqidatasavvurga ega bo'lishi;
- bormashina, stomatologik qurilma, dastak, dasta, stomatologik kreslotuzilishiniva ular bilanishlashni;
- bormashinaturlariniajratish (mexanik, elektrik, turbinali)ni;
- dastak turlarini ajratishni;
- stomatologik (ko'rish, charxlash, plombalash, tish toshlarni olish, plombaga pardozi berish uchun) asboblarni tuzilishini, qo'llash uchun ko'rsatmalarni;
- terapevtik stomatologiyada ishlatiladigan vaqtinchalik plomba tarkibini, xususiyatlarini, qo'llashga ko'rsatmalarni;
- terapevtik stomatologiyada ishlatiladigan doimiy plomba tarkibini, xususiyatlarini, qo'llashga ko'rsatmalarni;
- ajratuvchi va davolovchi tagliklartarkibini, xususiyatlarini, qo'llashga ko'rsatmalarni;
- kariyes haqida tushunchani;
- kariyes kovaklarni tasnifini;
- tish qattiq to'qimalarini charxlash asoslari va xavfsizlik qoidalarini;
- tish qattiq to'qimalarini charxlash bosqichlari va tamoyillarini;
- stomatologik uskunalar va asboblarni bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- stomatologik qurilmani ish holatiga keltirish;
- stomatologik dastaklarni farqlash;
- ko'rish uchun ishlatadigan asboblarni farqlash;
- plombani qorish va qo'yish uchun ishlatadigan asboblarni farqlash;
- tish toshlarni olish uchun ishlatadigan asboblardan to'g'ri foydalanish;
- borlarni farqlay olish va dastakka fiksatsiya qilish;
- plombalarni pardozlashda ishlatadigan asboblardan to'g'ri foydalanish;
- fantomlardasun'iydentindanvaqtincha plomba qo'yish;
- fantomlardaajratuvchitaglikqo'yish;
- fantomlardadavolovchitaglikqo'yish;

	<ul style="list-style-type: none"> – fantomlarda tsementlardan plomba qo'yish; – doimiyplombalarni qo'yish va ulargabirlamchipardozberishmalakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak. <p>2 semestr yakunida</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o'quv, ilmiy va ma'lumot adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, amaliy ko'nikmalarni mustaqil bajarish, test va vaziyatli masalalarni yechish; – karioz kovaklar va ularning charxlash mezonlari va usullari; – tishlar restavratsiyasi; – kariyes va nokariyeskasalligini profilaktika chora tadbirlari, usullari haqidatasavvurga ega bo'lishi; – karioz kovaklarni charxlash tamoyillarini; – karioz kovaklarni charxlash mezonlarini; – karioz kovaklarni charxlash usullarini; – stomatologik uskunalar va asboblar bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi; – stomatologik qurilma bilan ishlash; – borlarni farqlay bilish va turli dastaklarga fiksatsiya qilish; – kariyes kovaklarni sinflarga muvofiq charxlash tamoyillarini bilish; – I-sinf karioz bo'shlig'inicharxlash; – II-sinf karioz bo'shlig'inicharxlash; – III- sinf karioz bo'shlig'inicharxlash; – IV-sinf karioz bo'shlig'inicharxlash; – V-sinf karioz bo'shliqlarinicharxlash; – fantomlarda karioz bo'shliqqa medikamentozishlovberish; – fantomlarda karioz bo'shliqni quritish; – plomba ashyo turlariga muvofiq plombalash; – karioz bo'shliqni kompozitsion plomba ashyosibilanplombalash; – tishlarni restavratsiya qilishning asosiy bosqichlarini bajarish malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.
<p>3</p>	<p>3.Asosiy qism</p> <p>Ma'ruza № 1 Mutaxislikka kirish. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan ashyo va asboblar. Ularga qo'yiladigan talablar. Stomatologik qurilmalar. Ularning tarkibiy qismlari, turlari, ishlash tamoyillari.</p> <p>Ma'ruza № 2. Stomatologiyada qo'llaniladigan dastalar (egiluvchan, qattiq), dastak turlari, ularning tarkibiy qismlari, ishlash qoidalarini o'rgatish.</p>

Stomatologik asboblarning qo'llanilishi bo'yicha tasnifi, turlari, tuzilishi, qo'llash uchun ko'rsatmalar va ishlatish texnikasi.

Ma'ruza №3 Stomatologik ashyolar (plomba, qolip uchun va h.k.) turlari, tuzilishi, qo'llash uchun ko'rsatmalar va ishlatish texnikasi. Plomba ashyolarining tasnifi. Tarkibi, xususiyatlari, ko'llashga ko'rsatmalar.

Ma'ruza № 4 Vaqtinchalik plomba ashyolari, tasnifi, ularning tarkibi, hususiyatlari haqida ma'lumotlar berish. Doimiy plomba ashyolari, tasnifi, ularning tarkibi, hususiyatlari haqida ma'lumotlar berish.

Ma'ruza № 5. Kariyes haqida tushuncha. Kariyes kovaklari tasnifi. Kariyes kovaklarini charxlash bosqichlari va uslublari. Kariyesning kelib chiqish nazariyalari. Karioz bo'shliqlari tasnifi. Karioz bo'shliqlarini charxlash bosqichlari.

Ma'ruza № 1. Karioz bo'shliqlarni sinflarga va plomba ashyo turiga muvofiq charxlash tamoyillari va mezonlari. Charxlashning minimal invaziv usullari.

Ma'ruza № 2. Kompozit plomba ashyolari. Tasnifi. Kimyoviy va nur yordamida qotuvchi kompozitlar. Kompozit plomba ashyolarini ta'siri, qo'llashga ko'rsatmalar. Bonding tizimi.

Ma'ruza № 3. Adgeziv tizim haqida tushuncha. Tarkibiy qismi, ta'sir mexanizmi. Adgeziv tizim avlodlari. Qo'llashga ko'rsatmalar.

Ma'ruza № 4. Tishlar restavratsiyasi haqida tushuncha. Galogen lampa turlari va ishlatilishi, ishlash mexanizmlari, texnik xavfsizlik qoidalari.

Ma'ruza № 5. Kariyes kovaklarini sinflarga mansubligi bo'yicha restavratsiya qilish usullari. Ko'rsatma, qarshi ko'rsatmalar.

3.1 Amaliy mashg'ulot

- 1 Mutaxassislikka kirish. Ergonomika. Stomatologik xonani jihozlanishi.
- 2 Stomatologik qurilmalar Stomatologiyada qo'llaniladigan dastalar va dastaklar turlari. Ularni o'rnatish koidalari.
- 3 Stomatologik asboblarni tasnifi. Ko'rish va plombani qorish va qo'yishda ishlatiladigan asboblari
- 4 Tishlarni charxlashda ishlatiladigan rotatsion asboblari. Borlar. Plombaga pardozi berishda foydalaniladigan asbob va ashyolar.
- 5 Plomba ashyolari tasnifi. Vaqtinchalik plomba ashyolari-bog'lov materiallari. Ajratuvchi va davolovchi tagliklar.
- 6 Tsement asosli plomba ashyolar. Fosfat kislota asosli tsementlar. Tarkibi, xususiyatlari.

- 7 Shishaionomer tsementlar. Tarkibi, xususiyatlari Polikarboksilat tsementlar. Tarkibi, xususiyatlari.
- 8 Amalgamalar.
- 9 Kariyes haqida tushuncha. Kariyes kavaklarni tasnifi
- 10 Kanalni plombalashda qo'llaniluvchi plomba ashyolari.
- 11 Doimiy tishlovdagi chaynov tishlarning tuzilishi.
- 12 Doimiy tishlovdagi frontal gurux tishlarning tuzilishi.
- 13 Tish qattiq to'qimalarini charxlash asoslari va xavfsizlik qoidalari.
- 14 Tish qattiq to'qimalarini charxlash bosqichlari va tamoyillari. Fantomlarda I sinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash
- 15 Fantomlarda II sinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash.
- 16 Fantomlarda III sinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash
- 17 Fantomlarda IVsinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash.
- 18 Fantomlarda Vsinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash.
- 19 Fantomlarda VI sinf karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash.
- 20 Karioz bo'shliqni kimeviy kompozitsion plomba ashyosi bilan plombalash. Adgeziv tizimi.
- 21 Kimyoviy qotuvchi kompozit plombalar
- 22 Nur yordamida qotuvchi kompozit plombalar
- 23 Oquvchi kompozit plomba ashyolari

Fan davomida o'quv (klinik amaliyotni) tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarning "Preklinik restavratsion stomatologiya" fani bo'yicha klinik o'quv amaliyoti ta'lim jarayonining 50% tashkil qiladi va poliklinikaning terapevtik stomatologiya va stomatologiya bo'limlarida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabalar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p

marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni kadamma-kadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoyish etiladi, algoritmi asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, so'ng umumlashtirgan holda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemor (fantom, volonter)da qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli hil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda, balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlar (fantom, volonter)da, turli hil

vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

Amaliy ko'nikmalarni shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajariladi va kundalik (amaliy ko'nikma)daftarlarida aks etadi. Amaliy ko'nikmalarassistents-talaba, talaba-fantom, talaba-volontyor, talaba-bemor uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish lozim.

Preklinik restavratsion stomatologiya moduli o'quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo'lib, 1 kursda o'qitiladi va mutaxassislik modullarining ilk bosqichi hisoblanadi. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadbiiq etib, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib va orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.

4 4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

Birinchi semestr:

1. Zamonaviy stomatologik xonani jihozlanishi. Talablar.
2. Zamonaviy stomatologik qurilmalar. Tasnifi. Xususiyatlari.
3. Zamonaviy stomatologik dastaklar.
4. Rotatsion asboblarning standartizatsiyasi.
5. Stomatologiyaning turli bo'linmalarida ishlatiluvchi asboblarni farqlash.
6. Davolovchi tagliklar. Turlari, xususiyatlari.
7. Fosfat kislotasi asosli tsementlarning qo'llanilishi va xususiyatlari.
8. SHishaionomer tsementlar. Xususiyatlari, qo'llanilishi.
9. Kompozit plomba ashyolari haqida tushuncha.
10. Stomatologiyada ishlatiluvchi laklar.
11. Amalgamalar. Turlari, xususiyatlari.
12. Tish qattiq to'qimasini charxlash tamoyillari.

Ikkinchi semestr:

1. Tish qattiq to'qimasini charxlashning minimal invaziv usullari.
2. Tunel charxlash usuli.
3. Birlamchi qattiq plomba ashyolari. Parapulpar shtiftlar. Pinlar.
4. Tishlarning anatomik tuzilishi.
5. Tish qattiq to'qimalarining (emal, dentin, tsement) gistologik tuzilishi.
6. 6-sinf kariyes kovaklarni charxlashning o'ziga xos tomonlari.
7. Kimyoviy va nur bilan qotuvchi kompozitlarning polimerizatsiya bosqichining o'ziga xos tomonlari.
8. Kompozitlarning V,VI,VIIavlod adgeziv tizimlari asoslari.
9. Kompomer va ormoker plomba ashyolari. Tarkibi, xususiyatlari.
10. Kompozit plomba ashyolari bilan ishlashning amaliy jihatlari.
11. Plombalashning «Sendvich» usullari. YOpiq va ochiq usul.
12. Fissur germetiklar. Tarkibi, xususiyatlari, qo'llanilishi.

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

“Prelinik restavratsion stomatologiya” modul bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

1. auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish.

2. tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

3. birlamchi bo'g'in tibbiy muassasalarida aholini profilaktik ko'rik, bemorlarni dispanserlash, patronajlarda qatnashish;

4. bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;

5. ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

6. berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, prezentatsiya) tayyorlash;

7. nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

8. fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

9. ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;

Shuningdek, talabaning mustaqil ishi bo'lib:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari, trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

10. modulni faol o'zlashtirishda talabalarni olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishi hisoblanadi;

11. avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

12. loyihalashtirish dasturlari, organayzerlardan mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

13. prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

- axborot manbalarini va manzillaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;

- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;

- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;

- muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Kurs ishi (loyihasi) ko'rsatma va tavsiyalar

Modul bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida ko'zda tutilmagan.

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Modul bo'yicha malakaviy amaliyot 1 kursda "Tanishuv amaliyoti" sifatida rejalashtirilgan.

Modul bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari

Tibbiyot kasbiga kirishmoduli bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy baxolash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YAB).

Modulga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

5

VII. TALABLAR KREDITLARNI TO'PLASH TARTIBI .

Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1 moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma'lumot birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YN).

V-VI semestr – 6,0 kredit

JN – 6,0

YN – 0 kredit (o'tilishi majburiy).

Modul bo'yicha talabaning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

Modulga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

№	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	6
2.	Yakuniy nazorat (YN) (o'tilishi majburiy).	100	0

	JAMI	100	6,0
JORIY NAZORAT (JN)			
<p>JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.</p>			
<p>Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi.</p>			
Joriy nazorat uchun 6,0 kredit ajratiladi:			
<p>JN kafedrada og'zaki so'rov va masofaviy ta'lim platformasida test shakllarida o'tkaziladi.</p>			
<p>Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. O'qituvchi tomonidan talabaning JN bali shu kunni o'zida platformaga qo'yiladi.</p>			
<p>Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.</p>			
<p>Joriy nazoratda talaba ajratilgan kreditni to'liq to'plashi shart, shundagina u YN kiritiladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.</p>			
<p>Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.</p>			

YAKUNIY NAZORAT (YN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YNga kiritiladi. YNda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng og'zaki OSKE shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YNda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

6	Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Ba ho	Ta'rifi
	86-100	A	"a'lo" - a'lo natija,	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay	5	a'lo

		minimal hatoliklar bilan	<p>olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab berish olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va rasional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida</p>	4	yaxshi	

		hatoliklar bilan	<p>foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy,</p>			

		bilan	<p>xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>			
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija,	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;	3	Qoniqarli	

		qo'pol kam-chilik-lar bilan	<p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p>			

			<p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>	2	Qoniqarsiz	
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lo-	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p>			

			zim	nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.			
<p style="text-align: center;">Preklinik restavrasion stomatologiya moduli bo'yicha ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda xorijiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar o'rganib chiqildi va ishchi dasturni ishlab chiqishda halqaro tajriba asosida o'zgartirishlar kiritildi:</p> <p>1. Patris Lumumba nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universitetining (№316) quyidagi o'quv-uslubiy dasturlari ko'rib chiqildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • RXDU (RUDN) rektori O.A.Yastrebov tomonidan 10.06.2024 yil kuni tasdiqlangan 31.05.03-Stomatologiya yo'nalishi uchun olim ta'limdagi asosiy kasbiy o'quv dasturi; <p>2. Texas A&M University (AQSH), Stomatologiya fakulteti, «Stomatologiyaga kirish» moduli sillabusi: https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №143/ https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/texas/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)</p> <p>3. Universitet Malaviya Malaviya https://dentistry.um.edu.my/FOD/DOCUMENT/DOC%20UG/BDS%20Handbook%2020242025.pdfYuqoridagi nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini o'rganib chiqib, mazkur ishchi dasturga quyidagi mavzular qo'shimcha sifatida kiritildi:</p> <p>1 Kimyoviy va nur bilan qotuvchi kompozitlarning polimerizatsiya bosqichining o'ziga xos tomonlari. Kompozitlarning V,VI,VIIavlod adgeziv tizimlari asoslari.</p> <p>2 Stomatologik tibbiy tordamning talab va vazifalari.</p> <p>3 Plombaga pardo berishda foydalaniladigan asbob va ashyolar.</p> <p>4 Matritsa tizimi.</p>							

8 Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Kamilov H. P. va b. Stomatologik asbob va ashyolar. Darslik. Toshkent, 2005y.
2. Kamilov H. P. va b. Terapevtik stomatologiya propedevtikasi. Darslik. Toshkent, 2006y.
3. Bekjanova O.E., Yusupalixodjayeva S.X., Shukurova U.A., Alimova D.M. Klinik restavratsion stomatologiya. Darslik. Toshkent, 2019y.
4. Qozon (Volga bo'yi) federal universiteti R.G. Xafizov. va boshqa muallifligidagi "Stomatologiya xonasi ergonomika asoslari" o'quv-qo'llanma.
5. Tish qattil to'qimalari kasalliklari. Z.Q. Xakimova, M.X. Sherboyeva o'quv qo'llanma T. 2023 y.
6. Parodont to'qimasining yallig'lanish kasalliklari N.F. Absalamova, Z.Q. Xakimova o'quv qo'llanma A. 2023 y.
7. Pulpitlar va ularning davolash usullari. H.X. Oxunjonova, M.M. Rasulovva o'quv qo'llanma A. 2024y.
8. Rizaev J.A., Yusupalixodjaeva S.X., Xasanova L.E., Xanazarov D.A. Stomatologiyada hamshiralik ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018 y.
9. Borovskiy ye. V. Terapevticheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva, 1988g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

10. Borovskiy ye. V. Stomatologiya, Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam. Moskva, 1987 g.
11. Borovskiy ye. V., Ivanov V.S., Maksimovskiy YU.M., Maksimovskaya L.N. Terapevticheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva, 2002g.
12. Borovskiy ye. V. Terapevticheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva, 2004g.
13. Bazikyana E.A. Propedevticheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva, 2010 g.
14. Bajanov N.N. Stomatologiya. Uchebnik. Moskva, 2002g.
15. Magid ye. A., Muxin N.A. Fantomnyy kurs terapevticheskoy stomatologii. Atlas. Moskva, 1987g.
16. Vyazmitina A.V., Usevich T.L. Materialovedeniye v stomatologii. Seriya Uchebniki i uchebnye posobiya. Rostov na Donu, 2002g.
17. Kamilov X.P., Yusupalixodjaeva S.X., Xudanov B.O. Terapevtik stomatologiyada endodontiya asoslari. Elektron darslik. Toshkent, 2009y.
18. Maksimovskiy YU.M. Fantomnyy kurs terapevticheskoy stomatologii. Atlas.

	<p>Uchebnoye posobiye. Moskva, 2005g.</p> <p>19. Rizaev J.O. Stomatologiyada qo'llaniluvchi dori vositalari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2012y.</p> <p>20. Skorikova L.A., Volkov V.A., Bajenova N.P., Lapina N.V., yerichev I.V. Propedevtika stomatologicheskix zabolevaniy. Rostov-na-Donu, 2002g.</p> <p>21. Stiven Koen, Richard Berns. Endodontiya. Sankt-Peterburg, «Mir i semya-95», «Interlayn-2000».</p> <p>Internet saytlari:</p> <p>22. Germaniyaning "Lecturio GmbH" meditsina sayti</p> <p>23. www. Ziyonet.uz</p> <p>24. https://dentistry.um.edu.my/FOD/DOCUMENT/DOC%20UG/BDS%20Handbook%2020242025</p> <p>25. www. e-stomatology</p> <p>26. www. pubmed.gov</p> <p>27. (https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/texas/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)</p> <p>28. www. medline. ru</p> <p>29. https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf</p> <p>30. www. stom.ru</p>
7	<p>Andijon davlat tibbiyot instituti Propedevtik stomatologiya kafedrasidan ishlab chiqilgan va OTM kengashining 2025 yil " __27__ " avgustdagi 1 - son qarori bilan tasdiqlandi chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar:</p> <p>Z.Q. Xakimova - Propedevtik stomatologiya kafedrasini mudiri</p> <p>H.X.Oxunjonova - Propedevtik stomatologiyakafedrasini assistenti</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>D.Sh.Tulanov – ADTI , T.F.N. stomatologiya fakulteti dekani.</p> <p>Bolalar stomatologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi,</p> <p>Raimjonov R.R.– Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasini mudiri..</p>